
IMKONIYATLARNI ISHGA SOLSANGIZ, SAMARALI NATIJAGA EGA BO'LASIZ



Imkoniyatlarni ishga solsangiz, samarali natijaga ega bo'lasiz

Mahallalarda ichki imkoniyatlarni ishga solish tufayli ahol, ayniqsa, ayollar va xotin-qizlar bandligini ta'minlashga doir yaxlit tizim yaratilgani ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bandlikni ta'minlash zamirida manfaatdorlik mujassamligi hech kimga sir emas.

Tumanimizda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar o'zining samaralarini berayotir. Tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Madinaxon Safarova boshchiligidagi ishchi guruh G'aznov mahallasida o'rganishlar olib borishdi.

Mazkur mahallaning "Gulbog'" ko'chasida yashovchi fuqaro Hayotxon Boronboyeva o'z xonadonida issiqxona tashkil etib, tsitrus mevalar, ayniqsa, limon parvarishini yo'lga qo'ygan. Shuningdek, mazkur xonadonda parrandachilik ham yo'lga qo'yilgan.

Mahalla xotin-qizlar faoli Muqaddamxon Rahmatova so'zlariga ko'ra, mahalladagi xotin-qizlar bandligini ta'minlashda amaliy ishlar qilinayotir. Olinayotgan daromad va manfaatdorlik xotin-qizlar g'ayratiga g'ayrat qo'shmoqda.

deydi Hayotxon-opa.

Ma'lum bo'lishicha, mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli tomonidan ushbu xonadonga uch nafar ishsiz xotin-qizlar birlashtirilgan. Maqsad ayollar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka yo'naltirishdan iborat.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-24 15:58:07

